

# Journal of Natural Science

*No1 (6)  
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош муҳаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова,</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)</li><li>3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА</li><li>4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya</li><li>5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор</li><li>6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор</li><li>8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор</li><li>9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц</li><li>10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.</li><li>11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.</li><li>12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф</li><li>13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.</li><li>14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.</li><li>16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц</li><li>17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.</li><li>18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц</li><li>20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>22. Муминова Н-к.ф.н., доц</li><li>23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li><li>24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**AYDAR - ARNASOY KO‘LLAR TIZIMIDA EKOLOGIK TURIZMNI  
TASHKIL ETISHNING XUDUDDAGI BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI  
SAQLAB QOLISHDAGI AXAMIYATI**

*L.SH.Sanaeva., D.Egamberdieva, A.Ravshanova*

**Jizzax Davlat Pedagogika instituti**

[Sanaeva\\_08@mail.ru](mailto:Sanaeva_08@mail.ru)

**Annotatsiya.** Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi Jizzax viloyatining ekoturistik manzillaridan biri hisoblanadi. Ayrar-Arnasoy ko‘llar tizimida baliqlarning 28 turi, suvda xam quruqlikda yashovchilarning 3 turi, sudralib yuruvchilarning 24 turi, qushlarning 126 turi xamda sut emizuvchilarning 5 ta turi yashaydi. Aydarko‘l Nurota to‘gi etaklari va Qizilqum bag‘rida joylashganligi hududning e‘koturistik imkoniyatlari va turistik jozibadorligini yanada oshiradi. Bu hududda ekoturizm, agroturizm, gastroturizm, ov turizmi, ornitologik turizm, etnoturizm, sport sog‘lomlashtirish turizm va ziyorat turizm kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish mumkin.

**Kalit so‘zlar.** Aydarko‘l, Qizilqum, Nurota tog‘ tizmasi, ekoturizm, etnoturizm, gastroturizm, agroturizm, qishloq turizmi, suv tyrizmi, oilaviy mexmon uylari, xizmatlar, turistik joylashtirish vositalari.

**Kirish.** O‘zbekistonda keyingi yillarda turizmga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga chiqildi va ushbu soxa iqtisodiyotning strategik bo‘g‘ini sifatida e‘tirof etildi. YA‘ni, Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta‘minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Turistik jozibadorligi yuqori bo‘lgan xududlardan biri Jizzax va Navoiy viloyatlarida joylashgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidir.

O‘zbekiston respublikasining qator qaror va farmoyishlarida [1,2,3]. Jizzax viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, shu jumladan suvda dam olish va plyaj turizmini tashkil etish, mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va boshqa infratuzilma ob‘ektlarini barpo etish, shuningdek, mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini oshirish yuzasidan aniq chora tadbirlar belgilab olingan.

Jumladan, O‘zR Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 14 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 368-son qarorida quyidagilar bosh me‘zon sifatida belgilab olingan. Birinchi bosqichda, jami 204 o‘rinli 6 ta joylashtirish vositasi tashkil etilishi rejalashtirilgan. SHuningdek, hududda ekoturistik ob‘ektlar, ovchilik va suvda dam olish hududlari tashkil etiladi. Bundan tashqari hududda kempinglar majmuasi, o‘tov

lagerlari, sendvich panel va boshqa turdagi engil konstruksiyalardan joylashtirish vositalari barpo etiladi;

Ikkinchi bosqichda, Aydarko‘l atrofidagi 33 ming gektar hududda yangi turistik hududlar, joylashtirish vositasi, sog‘lomlashtirish maskanlari, sport tadbirlari o‘tkaziladigan maydonlar barpo etiladi;

Uchinchi bosqichda, 300 o‘rinli joylashtirish vositalari va sport tadbirlari o‘tkaziladigan maydonlar tashkil etiladi, 1 200 o‘ringa mo‘ljallangan avtotururgoh hamda savdo hududi barpo etiladi.

Rekreatsion ko‘llar hududiga birinchi bosqichning so‘nggida yillik 10 000 nafar turist tashrif buyurishi hamda 2040 yilda yillik turistlar soni 30 000 kishiga etishi kutilmoqda. [4].

Materiallar va usullar. Tadqiqot ishining materiali bo‘lib Aydar Arnasoy ko‘llar tizimi, Qizilqum cho‘li va Nurota to‘g‘ tizmasining, tabiati, iqlimi, reliefi va etnografiyasi, rekreatsoin hududlari hisolanadi. Usullari bo‘lib esa tavsifiy, hududiy, tizimli-strukturaviy, qiyosiy-geografik, rayonlashtirish, kartografik, ekspeditsion dala kuzatuvlari, shuningdek tadqiqot mavzusi bo‘yicha statistik, elektron ma‘lumot manbalari. Ishning uslubiy qoidalari geokologiya, fizik geografiya sohasidagi tadqiqotlar yutuqlariga, shuningdek mintaqaviy geografiyada ekoturizmga oid ilmiy ishlanmalarga asoslangan.

Aydar ko‘li (Haydar ko‘li) – Nuro-ta tizma tog‘larining shimoliy etagidagi ko‘l. Shimoliy qirg‘oqlari Sharqiy Qizilqumga tutashadi. Jizzax va Navoiy viloyatlari hududida. Aydar ko‘l o‘rni Shimoli Nurota yoni tektonik bukilmasidan iborat. 1969 yilgacha Aydar sho‘rxogi (botig‘i)da may-da sho‘r ko‘llar va sho‘rlar (Jalpoqsho‘r) keng tarqalgan edi. 1968—69 yillarda yog‘ingarchilikning haddan tashqari ko‘p bo‘lishi tufayli Sirdaryo oqimining bir qismi (qariyb 21 km<sup>3</sup>) Chordara suv om-bori va Arnasoy orqali Aydar botig‘iga oqizildi, chunki Orol dengiziga oqizish uchun shuncha suv Sirdaryo o‘zaniga sig‘mas edi. Aydar ko‘l shu tariqa tashkil topdi. Aydar ko‘lning tog‘ etagidagi janubiy qirg‘oqlari ancha tekis va suv osti yon bag‘irlari nis-batan tikroq, shimoliy qirg‘oqlari notekis va qiya, orol va yarim orollar mavjud. Aydar ko‘lning shimoliy qismi ancha sayoz, o‘rtacha chuqurligi 10—12 m, chuqur joylari 26—30 m, ayrim joylarda chuq. 40 metr gacha. Aydar ko‘l tor yo‘laklar orqali Tuzkon va Arnasoy ko‘llari bilan tutashgan [9].


Ayrar-Arnasoy ko‘llar tizimida baliqlarning 28 turi, suvda xam quruqlikda yashovchilarning 3 turi, sudralib yuruvchilarning 24 turi, qushlarning 132 turi xamda sut emizuvchilarning 5 ta turi yashashi aniqlandi. Bu erda yashovchi qushlarning 13 turi Xalqaro “Qizil kitob” ga, 24 turi O‘zbekiston “Qizil kitob” ga kiritilgan.

Aydar-Arnasoy ko‘lar tiziminnig ristik saloxiyatiga extibor qaratadigan bo‘lsak ushbu hudud uchta ekologik muhitni o‘zi ichiga oluvchi maskanada

joylashgan bo‘lib, tog‘, cho‘l va suv ekologik muhita bir joyga jamlagan alohida va noyob ekoturistik muhtni xosil qiladi (1-jadval). Shulardan kelib chiqib bu maskanda turizmsning bir necha mahsus turizm ekoturizm, agroturizm, tog‘ turizmi, gastro turizm, arnitologik turizm, qishloq turizmi, suv trizmi, rekreatsiya turizmi, ilmiy arxeologik turlarini ekomuxitlarni bir biriga bo‘lovchi marshrutlar tashkil etish imkonitini bergan. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi Qizilqum cho‘li va Nurota tog‘ tizmasi etaklarida joylashganligi uchun Aydarkul turistik saloxiyatini ushbu maskanlar hisobiga boyitish va jozibolarligini oshirish imkoni tug‘iladi. Zero xalqaro turizm bozorida sotilayotgan turistik marshriutlarga Nurota tog‘laridagi qishlaqlardan Uxum, Mojirum, Xayot, Asrof, Eski forish va Nurota davlat qo‘riqxonasi bufer zonasida joylashgan “Seversov qo‘yi buyurtmaxonasi”, 1000 yoshli Mojurum archasi (biota daraxti) kabi ko‘p yillik daraxtlar, tosh bitiklari, soyliklar va shsrsharalar, noyob hamda endemic o‘zimizlik turlari va hayvonot olami xam kiritlmoqda.

1-sxema.

Aydar Arnasoy ko‘llar tizimida ekologik turizmni turli ekologik muhitlar bilan birga rivojlantirish



1 jadval

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan turizmning mahsus turlarini

№	Mahsus turizm turlari	Turizm ob'ektlari	Tashkil esh vaqti
1	Ekoturizm	Aydarko‘lning fauna va florasi, Qizilqum biosfera rezervati qo‘riqxonasi. Ulardagi noyob va ebdemik turlar.	doimiy

2	Agroturizm	Aydarko‘lda baliqchilik sanoati	doimiy
3	Gastro turizm	Aydarko‘l baliqlaridan tayyorlangan turli taomlar	doimiy
4	Suv turizmi	Aydarko‘lda qayiqda sayr qilish, cho‘milish.	doimiy
5	Ornitologik turizm	132 turdagi turli tuman qushlarni kuzatish	doimiy
6	Ov turizmi	Baliq va suv botqoq qushlarini ovlash	doimiy
7	Sport turizm	Aydarkolda suv sport musobaqalari o‘tkazish	doimiy

Aydarko‘lni rivojlantirish ko‘zda tutidgan xukumat qaroralari [1,2,3]. Ayni paytda Arnasoy, Zafarobod va Forish tumanlari hududida 45 ta zamonaviy mehmonxona hamda 150 ta mehmon uylarini tashkil etish rejalashtirilgan. Sayyohlarning hududda uzoqroq muddat qolishini ta‘minlash maqsadida milliy urf-odat va an‘analari, to‘y-marosimlar, ko‘ngilochar tadbirlar namoyish etish, tabiatga, shuningdek, madaniy-tarixiy maskanlarga sayohatlar uyushtirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Jizzax shahridan ko‘lga borish uchun sayyohatga chiqqan turistlarga 93 km masofani o‘z ichiga olgan quyidagi marshurt yo‘nalishini tavsiya qilamiz. Bu marshurt yo‘nalishda Pistalient (Timiryazev) da ohaktosh qazib olinishini, Qli soyligidagi tik jarliklar, Pistalitog‘ manzaralari, Tuzkon, Aydar va Arnasoy ko‘llari va shifobaxsh balchiqlarini, to‘qay va cho‘l manzaralari, Mirzacho‘l mineral suvlari va davolanish maskanlarini tomosha qilish imkoniyati bor[8].

Agar Qizilqum va Nurota tog‘larida turizm maskanlarini Aydarko‘lga bag‘ishlab tuzilgan marshrutlarni boyituvchi va to‘ldiruvchi deb qarasaq, Aydarko‘lda turizmni rivojlantirishda ushbu maskanlarning turistik salohiyati va rivojlanish omillarini bir vaqtning o‘zida olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan Nurota tog‘ tizmasida joylashgan Nurota tog‘ yong‘oq qo‘riqxonasi va seversov qo‘yi buyutmaxonasi, Qo‘riqxonada hududida 78 oiladosh 821 turdagi o‘simliklar aniqlangan. SHulardan murakkabguldoshlar 96 turni, dukkakliklar 78 turni va boshqa tur o‘simliklar 76 turni tashkil etadi. O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga qo‘riqxonada florasi 33 turi, shu jumladan, 3 tur shirach, 3 tur anzurpiyoz, 5 tur lola, 5 tur astragal va boshqalar kiritilgan.

Qo‘riqxonada faunasining eng ko‘p, biroq, kam o‘rganilgan qismini umurtqasiz hasharotlar tashkil etadi. Hozirgacha hududda 761 turdagi hasharotlar tashkil etadi. Ular oasida 241 turdagi xilma-xil qo‘ng‘izlar, 93 tur ikkiqanotlilar, 58 tur parda qanotlilar va 240 tur kapalaklar ro‘yxatga olingan. Bu erdagi mavjud hasharotlarning 8 turi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan. SHuningdek, yirik jujelitsa, krasotel, glazunova, alksanor va kalimax kapalaklari ham noyob hisoblanadi. Hududda 21 turdagi repiliyalar uchraydi. Bu erda 199 turdagi qushlar borligi aniqlangan. Ularning 103 turi qo‘riqxonada yuqoridagi soladi. Quriqxonada yuqoridagi qushlarning 10 turi

va uchub o‘tuvchi qushlarning 8 turi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga, shulardan doimiy yashovchi 2 turdagi va uchub o‘tuvchi 3 turdagi qushlar xalqaro tabiatni muhofaza qilish hamjamiyatining “Qizil kitobi”ga kiritilganini alohida ta’kidlash lozim.

Forish tumanidagi Mojirim archasi, tosh bitiklari, ko‘p yoshli daraxtlar ekoturizm ob’ektlari xisoblansa, xonbandi suv ombri, Xazrati Eshon Xalifa, Xo‘jabog‘bon ota, “Narvon ota”, “Jondaxor ota”, Hazrati Zaynulobiddin ziyoratgohi nomli ziyoratgoxlari ziyorat turizmi ob’ktidir. Xalq milliy o‘yinlari ko‘pkari, kurash va boshqa milliy sport o‘yinlari, hunarmandlar va folklyor etnografik guruhlar etnoturizm ob’ektidir. Shuningdek ushbu hududdagi qishloqlar infratizilmasi, qishloq odamlarining yashs tarzi va urf odatlari, oddiy oilaviy qadriyatlarini ko`rishga xorijiy sayyoxlarning qiziqishi ortmoqdaa va bu hududda qishloq turizmining jadal ruvojanlashiga sabab bol`lmoqda.

(2 jadval)

**Nurota tog‘i turistik salohiyati va rivojlangalik darajasi**

№	Mahsus turizm turlari	Turizm ob’ektlari	Tashkil etish vaqti
1	Ekoturizm	Nurota tog‘ tizmasidagi Nurota davlat qo‘riqxonasi fauna va florasini. Qizilqum arxar buyutmaxonasi.	doimiy
2	Etnoturizm	Nurota tog‘ bag‘rida joylashgan qishloq axolisining yashash tarzi va urf odatlari, an’anlaari.	doimiy
3	Gastro turizm	Milliy taomlarni tayyorlash va tatib ko‘rish	doimiy
4	Oritologik turizm	Nurota tog`laridagi noyob qush turlarini kuzatish.	doimiy
5	Ziyorat turizm	Nurota to`g`larida joylashgan ziyoratgox va qadamjolarini ko`rish.	doimiy
6	Tarixiy ilmiy turizm.	Nurota to`g`idagi tosh bitiklari, Xonbandi tarixiy maskaniga sayohat qilish	doimiy
7	Sanoat turizmi	Nurota tog`i bag`ridagi sement zavodi va qum shag`al tayyorlash karerlari bo`ylab sayoxat	doimiy
8	Agroturizm	Aholi tomorqa erlardagi dehqonchilik va chorvachilik, uzumchilikni ko`rish	doimiy
9	Sog`lomshtirish turizmi	Qizilqumdagi tuya suti bilan davolovchi sixatgo`x, Mirzacho`ldagi balchiq bilan davolovchi sixatgoh	doimiy
10	Sport turizmi	Qizilqum bag`rida	doimiy

11	Ov turizmi	Yirik qushlar va mayda sut emizuvchilarni ovlash.	doimiy
----	------------	---	--------

Qizilqumda qumli massivlar va past qirlar katta maydonni egallaydi. Qumli massivlar uchun cho‘l qumli tuproqlari, qirlar uchun bo‘z qo‘ng‘ir tuproqlar xos. Taqir, sho‘rxok tuproqlar tarqalgan. Bularda chirindi moddalari kam. Qizilqum o‘simliklari xilmaxil. Cho‘l sharoitida namlikning taqchilligi va havo, tuproq haroratining balandligiga o‘simliklar ham moslashgan. O‘simlik turi 900 ga yaqin, shundan 226 turi (25%) O‘rta Osiyo uchun xos va 34 turi (3,5%) Q. ga xos o‘simliklardir.

Sut emizuvchilardan jayran, sayg‘oq, cho‘l mushugi, barxan mushugi, qo‘shoyoq, yumronqoziq, qumsichqon, tulki, bo‘ri, quyon, olako‘zan, uzun quloq tipratikan; sudralib yuruvchilardan qum bo‘g‘ma iloni, o‘qilon, uzun quloqli va taqir dumaloqbosh kaltakesak, agama, echkemar; qushlardan boyqush, chil, xo‘jasavdogar, saksovul to‘rg‘ayi, cho‘l qarg‘asi, bulduruq, burgut, boyqush; hasharotlardan chayon, qoraqurt, biy, chigirtka va boshqalar uchraydi. Qizilqumda mayin junli va qorako‘l qo‘ylar boqiladi. Artezian havzalardan suv chiqarilib, chorvachilikni rivojlantirish maqsadida kichik vohalar vujudga keltirilmoqda. Qoldiq tog‘lardan marmar, grafit, feruza, Muruntovdan oltin, uran, shuningdek, fosforit, korund, boksit konlari topilib, qazib olinmoqda. Gazli konidan foydalanilmoqda.

**"Qizilqum cho‘lidagi turizm turlari va tashkil etilishi vaqti**

№	Maxsus turizm turlari	Turizm ob‘ektlari	Tashkil etish vaqti
1	Ekoturizm	Qizilqum cho‘lining fauna va florasi. Qizilqum arxar buyutmaxonasi.	doimiy
2	Oritologik turizm	Qizilqumdagi noyob qush turlarini kuzatish.	doimiy
3	Sanoat turizmi	Qizilqum bag`ridagi karerlari bo`ylab sayoxat	doimiy
4	Agroturizm	Qizilqumdagi o`zlastirilgan erlardagi dehqonchilik va chorvachilik	doimiy
5	Sog`lomshtirish turizmi	Qizilqumdagi tuya suti bilan davolovchi sixatgo`x, Mirzacho`ldagi balchiq bilan davolovchi sixatgoh	doimiy
6	Sport turizmi	Qizilqum bag`rida sport mashinalari poygalarini tashkil qilish	doimiy
7	Ov turizmi	Yirik qushlar va mayda sut emizuvchilarni ovlash. Lochinda ov qilish.	doimiy



Xulosa. Aydar – Arnasoy koʻllar tizimi hududning fiziko-geografik tasnifi va uning ekoturistik imkoniyatlari, tashkil etilishi lozi, boʻlgan turizm klasterlari ishtiqbollardan kelib chiqib koʻl tabiati va Nurota toʻgʻ tizmasi va Qizilqum choʻlining fauna-florasi, tabiiy landshaftlari saqlash xamda ekoturiztlarga taqdim etiladigan marshrutlarninf jozibadorligi va ilmiyiligini hamda qiziqarlilaigini taʼminlash maqsadidada quyidagilarga eʼtiborni qaratish oʻta zaruru deb hisoblaymiz:

Aydar – Arnasoy koʻllar tizimi va unga yindosh ekomuxitlar (Nurota toʻgʻ I va Qizilqum choʻli)dagi hayvon va osimliklarning populyatsiyasi oʻrganib chiqilish;

-hayvon va osimliklarining noyob turlari xaqida maʼlumotlar bazasi shakllanishi va ularning koʻpayishi, yashash va qishlash joylari xaqidagi maʼlumotlar xaritalarda qayd etilishi;

-baliqlar, qushlarning ovlanish vaqtlari cheklovlari xaqida tavsiyanomalar ishlab chiqilishi;

-qushlarning koʻpayishi mavsumlarida turistik marshrutlar va sayyoxlarni jalb etish tavsiyalarini ishlab chiqish;

- hayvon va noyob qushlarni koʻpaytiruvchi pitomniklar va ularni saqlovchi mahsus qoʻriqlanma hududlarning sonini oshirish;

Ushbu tadbirlar Aydar – Arnasoy koʻllar tizimi va unga yindosh ekomuxitlar (Nurota toʻgʻ I va Qizilqum choʻli)dagi tabiatni asrash va bioxilma-xillikni saqlashda ekoturistlarga tabiatning ushbu moʻjizakor makoniga qilgan sayoxatlari davomida tabiatga boʻlgan antropogen taʼsirlarni kamaytitadi va turli joylashtirish vositalai qurilishlarida tabiiy populyatsitalarning yoʻqolib ketishining oldini olishga asos boʻladi.

### **Foydalanilgan adaiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Turizm toʻgʻ risida”gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019 yil 21 iyunda maʼqullangan.(6 modda)
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “ Oʻzbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻ risida” gi PF-5611-sonli framoni va ushbu farmonda tasdiqlangan “ 2019 — 2025 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 22 apreldagi « Aydar-Arnasoy koʻllar tizmining biologik resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oirish chora tadbirlari toʻgʻ rsida” gi 347-sonli qarori
- 4.OʻzR Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 14 iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻ risida” gi 368-

son qarori va uning “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi hamda To‘dako‘l ko‘lida turizm xizmatlarini rivojlantirish” dasturi to‘g‘risidagi ilovasi.

4. Филатова Е.А. Изменение авиафауны озера Тузкан за 100-летний период. Наземные позвоночные животные аридных экосистем. Ташкент: Chinor ENK, 2012. Мат. междунар. конф. С. 290-298.

5. Лановенко Е.Н., Филатов А.К., Кашкаров Д.Ю., Загребин С.А., Шерназаров Э., Филатова Е.А. Мониторинг зимовок гидрофильных птиц на водоемах Узбекистана. Биоразнообразие Узбекистана – мониторинг и использование. Ташкент, 2007. С. 98-109. Порыбам и млекопитающим:

6. Ғ.Қодиров. Айдарқўл соҳили ўсимликлари қопламининг трансформацияси. – Т.:”ТАҒАККУР”, 2014.(8-11)

7. Ғўдалов М.Р. Айдар-Арнасой ботиғида экотуризмни ривожлантириш истиқболлари. Ўзбекистонда туризм ва рекреацияни ривожлантиришнинг географик муаммолари ва имкониятлари. Халқаро илмий-амалий конференция. Чирчиқ шаҳри, 2019 йил 11-12 октябрь. (51)

8. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A., O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi, T., 2002.(310)

9. И.А.Ҳасанов, П.Н.Ғуломов, А.А.Қаюмов. Ўзбекистон табиий географияси (2-қисм) Университетлар ва педагогика институтларининг география, биология-география, тарих-география мутахассисликлари учун қўлланма. Тошкент-2010 (48)

10. Lola Ortiqova, Физико географические особенности пустыни Кызылкум , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №93 (science.i-edu.uz, jspi.uz)